



ISSN : 2992-894X

**JOURNAL OF
INNOVATION
IN EDUCATIONAL
AND SOCIAL
RESEARCH**





ProIndex (Uzbekistan)

Journal of Innovation in Education and Social Research

ISSN: 2992-894X

Table of Content - Volume 3 | No 3 (Mar 2025)

Colum	Paper Title	Author Name	Page No
1	Buxoro Oblastida Qishloq Xo'jaligi Sohasida Amalga Oshirilgan Islohotlar	Hayitov Jahongir Shodmonovich, Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich	1-5
2	Role of Teacher and Peer Feedback in Enhancing Junior Students' Speaking Skills	Kiranova Khafiza Uramish qizi	6-11
3	Ielts Reading Ko'nikmasini Rivojlantirish Uchun Eng Samarali Usullar Va Tavsiyalar	Absalamova Rohila Habibulla qizi	12-16
4	YOZMA NUTQ KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISHDA OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK ISHLAR METODIKASI	Quysinboyeva Iroda G'ulomjon qizi	17-19
5	NUTQ BUZILISHLARI PSIXOKORREKSIYA VA PSIXOPROFILAKTIKA	G'aybullayeva Rushana Maxmudovna	20-22
6	NUTQIDA NUQSONI BOLGAN BOLALARNING BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH USULLARI	Imomova Mahbuba Vahob qizi	23-26
7	BOLA NUTQINING RIVOJLANISHIGA OILAVIY MUHITNING TA'SIR XUSUSIYATLARI	G'aniyeva Marjona Shavkat qizi	27-29
8	MAKTAB YOSHIDAGI NUTQ NUQSONIGA EGA BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN PSIXOKORREKSIYA	Qo'ysinboyeva Iroda G'ulomjon qizi	30-31
9	NUTQ BUZULISHLARI PSIXOPROFILIKTIKASI	G'aybullayeva Rushana Mahmudovna	32-34
10	UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI	G'aybullayev Quvonchbek G'olibjon o'g'li,	35-38
11	ONLAYN RESURSLARNI TANLASH, MOSLASHTIRISH, TAHLIL QILISH VA OPTIMALLASHTIRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	Kaldibekov Alibek Bolatbekovich	39-43
12	Boshlang'Ich Ta'lilda Kombinatorik Masalalarni Yechish Metodikasi	Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna	44-48
13	Ekoshaharlarni Loyihalashning Zamonaviy Tajribalari Va Arxitekturadagi Ekologik Standartlar Orasidagi O'zaro Bog'liqlikni Aniqlash	Abdusamatova Lola Xudoynazarovna	49-51
14	Beton Va Uning Tarqalish Evolyutsiyasi	Matqurbanov Bunyod Bog'ibek	52-55
15	Преимущества И Недостатки Современного Локомотива ТЭМ2	Абдувахобов Муслимбек Элбек угли, Кенесбаева Шолпан Курбангали кизи	56-58
16	The Use of Imperative Verbs in Radio Advertising Texts	Jurayeva Maksuda Mukhammadovna, Abdurahmanova Matluba	59-62
17	Tarjima Va Uning Tarixi	Hazratqulova Ferangiz Farrux qizi	63-64

ONLAYN RESURSLARNI TANLASH, MOSLASHTIRISH, TAHLIL QILISH VA OPTIMALLASHTIRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Kaldibekov Alibek Bolatbekovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, o'qituvchisi

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lrim tizimida onlayn resurslarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Pandemiyalar, texnologik yangiliklar va global raqamlashtirish jarayonlari ta'sirida maktablar hamda o'quv muassasalari onlayn ta'lrim resurslaridan keng foydalanishga majbur bo'ldi. Biroq, turli yosh guruhlari hamda o'quv fanlari uchun mos resurslarni tanlash, ularni moslashtirish, tahlil qilish va optimallashtirish jarayonlari hali ham takomillashtirishni talab qilmoqda. Ushbu maqolada onlayn resurslarni tanlash va ularni samarali foydalanish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan usullar va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lrim, onlayn, resrus, o'quv fanlari, yosh guruhlari, zamonaviy ta'lrim, o'quvchi, platforma.

Zamonaviy ta'lrim tizimida onlayn resruslardan samarali foydalanish o'zining an'anaviy ta'limda natijadorlikgi hamda o'qituvchi va o'quvchilarga qulay bo'lishi bilan keng qo'llanishga olib kelmoqda. Buning natijasida bugungi kunda ta'lrim oluvchilarga onlayn platformalar, onlayn adabiyotlar hamda onlayn ta'lrim resruslarini ishlab chiqish ortib bormoqda. Buning natijasida o'quvchilarning yoshlari hamda psixologik rivojlanishini hisobga olgan holda o'qituvchilar ularni o'quvchilarga tavsiya etishlariga olib kelmoqda.

Onlayn resurslarni tanlashda quyidagi omillarni inobatga olish zarur:

Yosh guruhiga moslik: Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yinli hamda interaktiv resurslar, katta yoshdagilar uchun esa murakkabroq va ilmiy materiallar o'z ichiga olgan resruslar tanlanishi kerak.

Fanning o'ziga xos xususiyatlari: Masalan, matematika uchun interaktiv misollar, kimyo uchun virtual laboratoriylar, adabiyot uchun audiokitoblar hamda videolar.

Didaktik mezonlar: Resurslarning o'quv dasturiga mosligi, mazmunining to'g'riliqi hamda o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga qaratilganligi.

Texnik imkoniyatlar: Resurslarning foydalanish qulayligi, internetga kirish tezligi va qurilmalar bilan mosligiga e'tibor qaratish kerakligini ko'rsatadi.

Masalan: Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun "ABCmouse" kabi interaktiv platformalar, o'rta sinflar uchun "Khan Academy", "Ibrat Academy" kabi resurslar tanlanishi mumkin.

Onlayn resruslardan foydalanish quyidagi o'zining ijobiy xuusiyatlari bilan ajralib turadi:

1. Bilim darajasini oshirishga xizmat qiladi:

- **individuallik:** Har bir o'quvchining bilim darajasi va o'rganish tezligiga moslashuvchan resurslar orqali bilimlarni chuqurlashtirish.
- **murakkab mavzularni osonlashtirish:** virtual laboratoriylar, 3D modellar va interaktiv darsliklar orqali murakkab fanlarni (masalan, fizika, kimyo, biologiya) tushunishni osonlashtirish.
- **global bilimlar bilan tanishtirish:** xalqaro onlayn platformalar (masalan, Coursera, edX) orqali yuqori sifatli ta'lif resurslariga kirish imkoniyati.

2. O'quvchilarning mustaqilligini oshirishga yordam beradi, ya'ni

- vaqtini samarali boshqarish: o'quvchilar o'zlarining dasturlarini yaratib, vaqtini optimallashtirishni o'rganadilar.
- mustaqil o'rganish qobiliyati: onlayn resurslar orqali o'quvchilar yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish va masalalarini hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishadi.

Masalan, Google Classroom, Moodle, e-maktab hamda HEMIS kabi platformalarda mustaqil topshiriqlarni bajarish.

3. Texnologik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, jumladan:

- raqamli savodxonlik: onlayn resurslardan foydalanish orqali kompyuter, internet va dasturlarni ishlatish ko'nikmalarini oshirish.
- zamonaviy texnologiyalar bilan ishslash: dasturlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, virtual reallik kabi sohalar bilan tanishish.

Bunga misol qilib, Code.org yoki Scratch kabi platformalarda dasturlash asoslarini o'rganish.

4. Kreativlik va innovatsiyani rag'batlantirishni ta'minlaydi:

- loyihalar va tadqiqotlar: onlayn resurslar orqali o'quvchilar o'z loyihalarini ishlab chiqish va ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatiga ega bo'lishadi.
- multimedia mahsulotlari yaratish: videolar, prezentatsiyalar, bloglar yaratish orqali kreativlikni rivojlantirish.

Canva yoki Prezi kabi vositalar yordamida prezentatsiyalar tayyorlash.

5. Xalqaro hamkorlik va kommunikatsiyadan foydalaishni ta'minlaydi:

- global hamjamiyat bilan aloqa: xalqaro onlayn platformalar orqali dunyoning turli burchaklaridagi o'quvchilar va mutaxassislar bilan aloqa o'rnatish.
- tillarni o'rganish: chet tillarini o'rganish uchun onlayn resurslardan (masalan, Duolingo, BBC Learning English) foydalanish.

Erasmus+ kabi xalqaro loyihalarda qatnashish.

6. Testlash va baholashni takomillashtirishga yordam beradi:

- tezkor baholash: Onlayn testlar orqali o'quvchilarning bilim darajasi tez va aniq baholanishi.
- statistik ma'lumotlar: O'quvchilarning natijalarini tahlil qilish va ularga individual yondashuvni ishlab chiqish.

Quizlet yoki Kahoot kabi platformalarda interaktiv testlar tayyorlash.

7. Kasbiy yo'nalishni aniqlashga ko'maklashadi:

- karyera yo'nalishlari bilan tanishtirish: Onlayn kurslar va vebinarlar orqali turli kasblar haqida ma'lumot olish.
- universitetlar va stipendiyalar haqida ma'lumot: Xalqaro universitetlar va grantlar haqida onlayn resurslardan foydalanish.

Coursera yoki FutureLearn platformalarida universitetlar bilan bog'liq kurslarni o'rganish.

8. Ijtimoiy va psixologik jihatdan rivojlanishni ta'minaydi:

- jamoa ishi ko'nikmalari: Onlayn loyihalar orqali jamoada ishlash qobiliyatini oshirish.
- motivatsiya va mas'uliyat: Onlayn resurslardan foydalanish orqali o'quvchilarning o'z ishlariga mas'uliyat hissini oshirish.

Google Docs yordamida guruh loyihalarini amalga oshirish.

9. Ekologik va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi:

- qog'oz va boshqa resurslarni tejash: Onlayn resurslar orqali qog'oz, darsliklar va boshqa materiallarni tejash.
- xarajatlarni kamaytirish: Onlayn platformalardan bepul yoki arzon narxlarda foydalanish.

O'quv dasturlarini elektron shaklda taqdim etish.

10. Kelajakdag'i kasblarga tayyorgarlikni oshiradi:

- zamonaviy kasblarga moslashish: Sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili, dasturlash kabi sohalarga tayyorgarlik.
- loyihalar va startaplar: Onlayn resurslar orqali biznes loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Udemy yoki LinkedIn Learning platformalarida zamonaviy kasblar bo'yicha kurslarni o'rganish.

Onlayn resurslarni tanlash, moslashtirish, tahlil qilish va optimallashtirish jarayonlarini takomillashtirish orqali mакtab ta'limining samaradorligini oshirish mumkin. Buning uchun yosh guruhlari, fanlar va texnik imkoniyatlar hisobga olinishi, shuningdek, o'qituvchilar va ota-onalarning faol ishtiroki ta'minlanishi zarur. Kelajakda onlayn ta'lim resurslarini yanada rivojlantirish va ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Turli yosh guruhlari va fanlar uchun resurslarni moslashtirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- har bir o'quvchining bilim darjasini va o'rganish uslubini hisobga olgan holda resurslarni moslashtirish.
- o'quvchilarning madaniy va til xususiyatlarini hisobga olgan holda materiallarni qayta ishlash.
- o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadigan elementlar (o'yinlar, testlar, videolar) qo'shish.

Masalan, matematika darslari uchun mahalliy misollar va real hayotiy vaziyatlarni qo'llash orqali resurslarni moslashtirish mumkin.

Resurslarni tahlil qilish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

Foydalanish samaradorligini baholash: O'quvchilarning bilim darajasidagi o'zgarishlar, test natijalari va o'qituvchilarning fikrlari.

Statistik ma'lumotlarni to'plash: Resurslardan foydalanish chastotasi, o'quvchilarning aktivligi va natijalarni solishtirish.

Kamchiliklarni aniqlash: Resurslarning texnik kamchiliklari, mazmunidagi xatolar yoki o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'diruvchi joylarni aniqlash.

Onlayn testlar natijalari asosida o'quvchilarning qaysi mavzularda zaifliklari borligini aniqlash va shu mavzularga qaratilgan qo'shimcha materiallar tayyorlash.

Optimallashtirish jarayoni quyidagi yo'naliislarda amalga oshirilishi mumkin:

Mazmunni yangilash: Yangi metodik materiallar, videolar va interaktiv vazifalar qo'shish.

Texnik jihatdan takomillashtirish: Resurslarning yuklanish tezligini oshirish, mobil ilovalar yaratish.

Foydalanuvchilar tajribasini yaxshilash: Interfeysni soddalashtirish, qidiruv tizimini takomillashtirish.

“Google Classroom” platformasida o’quvchilarning fikr-mulohazalarini hisobga olgan holda interfeysni o’zgartirish misol sofatida kelirish mumkin.

O’qituvchilarni malakasini oshirish: Onlayn resurslardan foydalanish bo'yicha treninglar o'tkazish.

Ota-onalarni jalg qilish: Ota-onalarni onlayn ta'lim jarayoniga faol jalg qilish.

Motivatsiyani oshirish: O’quvchilarni rag’batlanirish uchun mukofotlar, sertifikatlar va raqobatli elementlarni joriy etish.

XULOSA: Yuqori sinflarda onlayn resurslardan foydalanish orqali nafaqat bilim darajasini oshirish, balki o’quvchilarning texnologik, ijtimoiy va kreativ ko’nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu jarayon ularni kelajakdagи kasb va hayotiy vazifalarga tayyorlashda muhim rol o’ynaydi. Onlayn resurslarni to’g’ri tanlash, moslashtirish va samarali foydalanish orqali ta’lim jarayonini yanada sifatli va samarali qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, T. (2020). *Online Learning: Principles and Practices*. Routledge.
2. Bates, A.W. (2019). *Teaching in a Digital Age*. Tony Bates Associates Ltd.
3. Khan Academy. (2023). *Using Online Resources in Education*. www.khanacademy.org.
4. UNESCO. (2021). *Guidelines for Online Learning in Schools*. UNESCO Publishing.
5. Shodmonova, N. (2017). O’quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda noan'anaviy metodlarning ahamiyati. O’zbekiston ta’limi, 21(3), 78-84.
6. Zaripov, A. (2021). Innovatsion texnologiyalar va pedagogik metodlar: noan'anaviy yondashuvlar. Journal of Modern Education, 6(1), 102-107.
7. Jo’rayeva N.O. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta’limini mobil dasturiy ilovalardan foydalanib samarali tashkil etish metodikasi (umumkasbiy fanlar misolida): dissertatsiya, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori. Buxoro, 2023. -35-51 bet.
8. Juraeva N. EVALUATION OF EFFICIENCY IN THE ORGANIZATION OF SELF-STUDY WITH THE ASSISTANCE OF DIGITAL EDUCATIONAL TOOLS FROM MATHEMATICS TO STATISTICS. AIP Conf. Proc. 3268, 070028-1–070028-8; <https://doi.org/10.1063/5.0257430>
9. С.Ходжиев, Н.О.Жўраева. Применение алгоритмического метода при решении неравенств. Образование и наука в XXI веке». Выпуск №25 (том 4) (апрель, 2022). стр - 1088-1099
10. Шодиев Р.Д., Жўраева Н.О. Олий таълимда мустақил таълимни ташкил этишнинг ҳозирги ҳолати. Educational Research in Universal Sciences. 2022, 5-сон. -248-254 б (13.00.00; 23)
11. Шодиев Р.Д., Жўраева Н.О. Таълимнинг мобиллашуви шароитида талабалар мустақил таълимни ташкил этиш ва ривожлантириш. International conference on innovative development of education. 2022/19. -22-25 б
12. Jurayeva N.O. Specific aspects and principles of the method of organizing independent education of students. Actual problems of modern science, education and training”. №8, Xorazm, 2022. – P. 23-27. (13.00.00; № 24).

13. Jo'rayeva N.O. Mobile Softwareanwendungen zur Organisation unabhängiger Bildung// Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. Vol. 2, Issue 1.5 (2022), – P. -661-664. (13.00.00; № 7).